



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

JINOYAT HUQUQIDA ISHTIROKCHILIK INSTITUTINI TAKOMILLASHTIRISHGA OID FIKRLAR

Xolmatova Muxlisa Shermuhammad qizi

Farg‘ona viloyati yuridik texnikumi

“Sud-huquqiy faoliyat” yo‘nalishi 2-bosqich 23-guruh o‘quvchisi

Annotation:

ushbu maqolada jinoyat qonunchiligidagi ishtirok tushunchasi, olimlar tomonidan ishtirokchilik instituti xususida bildirilgan fikrlar hamda ishtirokchilik tutunchasining mohiyatiga berilgan taklif haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: jinoyat, ishtirokchilik, Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish Konsepsiysi, tashkilotchi, dalolatchi, yordamchi, bajaruvchi.

Аннотация:

в этой статье говорится о концепции соучастия в уголовном праве, мнениях, высказанных учеными относительно института соучастия, а также о предложении о природе соучастия.

Ключевые понятия: понятие совершенствования уголовного, соучастного, уголовного и Уголовно-процессуального законодательства, организатор, дознаватель, помощник, исполнитель.

Abstract:

This article discusses the concept of participation in criminal law, the opinions expressed by scientists about the Institute of participation, and the proposal given to the essence of participatory smoke.

Key concepts: concept of improvement of criminal, participatory, criminal and Criminal Procedure legislation, organizer, signatory, assistant, acting.

Jinoyat sodir etishda ishtirokchilik instituti jinoyat huquqining eng muhim, dolzarb, bahsli va murakkab institutlaridan biri ekanligi barchamizga ma’lum. Ushbu mavzu



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

bo'yicha ko'p yillar davomida bir qator tadqiqotlar, o'rganishlar olib borilgan bo'lsa-da, bu masalada turlicha qarash va yondashuvlar haligacha saqlanib turibdi. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi rivojlangan davlatlarning tajribalari asosida ishlab chiqilgan, biroq uni ham ideal normativ-huquqiy hujjat deyish qiyin. Jumladan, Kodeksda jinoyatda ishtirokchilik haqidagi normalarning mukammal emasligini ko'rsatuvchi bir qator kamchiliklar sezilib turadi. Bu kamchiliklar ishtirokchilik institutining mohiyatini to'g'ri tushunishda, ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlarni aniq kvalifikatsiya qilishda muammolar yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda hamda ushbu institut takomilga muhtoj ekanligini ko'rsatmoqda.¹

Mazkur masalada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 maydag'i PQ-3723-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchilagini takomillashtirish Konsepsiysi"ning 2.5 bandida jinoyatda ishtirokchilik institutini ularning mezonlari va xususiyatlarini aniqlashtirish orqali takomillashtirish vazifasi belgilab berilgan.

Ma'lumki O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 27-moddasiga muvofiq, ikki yoki undan ortiq shaxsning qasddan jinoyat sodir etishda birqalashib qatnashishi ishtirokchilik deb topiladi.

Jinoyatni ishtirokchilikda sodir etilgan deb topish uchun unda qatnashgan ikki yoki undan ortiq shaxslarning barchasi jinoyat subyekti bo'lishi kerakmi yoki yo'qmi, degan savolga amaldagi Kodeksning 27-moddasi matnidan javob olib bo'lmaydi.² Biroq O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 28-moddasida e'tibor qaratilsa, jinoyatni bajaruvchi bilan bir qatorda tashkilotchi, dalolatchi va yordamchilar ham jinoyat ishtirokchilari deb topiladi.

Ko'pgina olimlar bu borada o'z fikrlarini bildirib o'tishgan. Masalan, M.Usmonaliyevning fikricha, agar jinoyatda faqat ikki kishi bajaruvchi sifatida qatnashib, ulardan biri o'sha jinoyat uchun jinoiy javobgarlikka tortish yoshiga yetmagan yoki aqli noraso bo'lsa, jinoyat ishtirokchilikda sodir etilgan deb hisoblanmaydi.³

M.Rustambayevning ta'kidlashicha, bir nechta shaxs ishtirok etgan ijtimoiy xavfli qilmish faqat unda qatnashgan kamida ikki nafar shaxsning qonunga ko'ra jinoyat

¹ F. Ishanxodjayev. Ishtirokchilik institutiga takliflar. <https://advokatnews.uz/xabar/1841.html>.

² F. Ishanxodjayev. Ishtirokchilik institutiga takliflar. <https://advokatnews.uz/xabar/1841.html>.

³ M.Usmonaliyev. Jinoyat huquqi. Umumiy qism: Darslik – Toshkent: Yangi asr avlod, 2010. 278-b.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

subyekti belgilariga ega bo‘lganidagina jinoyatda ishtirokchilik deb topilishi mumkin. Shu bois Jinoyat kodeksiga muvofiq javobgarlikka tortilishi mumkin bo‘lman yoki aqli naroso shaxslardan foydalanib jinoyat sodir etish jinoyatda ishtirokchilikni tashkil etmaydi.⁴

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, ishtirokchilik uchun jinoiy javobgarlik, jinoyat sodir etishda ikki va undan ortiq, aqli raso, JK 17-moddasida belgilangan yoshga to‘lgan shaxslarning birgalashib harakat qilishi natijasida vujudga keladi. Jinoyat sodir qilishda qatnashgan ikki shaxsning biri javobgarlik yoshiga yetmagan yoki aqli noraso bo‘lsa, bu jinoyat ishtirokchilikda sodir qilingan deb topilmaydi. Demak ishtirokchilardan biri jinoiy javobgarlikka tortish yoshiga yetmagan bo‘lsa, jinoyatni voyaga yetmagan shaxslardan foydalanib sodir etilgan deb baholash lozim bo‘ladi va bunda ushbu yoshga yetgan, aqli raso shaxslargina ishtirokchi sifatida e’tirof etilishi lozim.

Ma’lumki, ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyat jazoni va qilmishni og‘irlashtiruvchi holat bo‘lganligi bois ham qilmishni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish hamdaadolatli va qonuniy jazo tayinlashda jinoyatda ishtirokchilik tushunchasini va uning belgilarini bilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Jinoyat kodeksining 56-moddasining “m” bandida jazoni og‘irlashtiruvchi holatlardan biri sifatida jinoyatni “bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirgan holda yoki uyushgan guruh yoxud jinoiy uyushma tomonidan” sodir etilishi ifodalangan bo‘lsa, ushbu kodeksning maxsus qismi moddalarida “bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo‘lsa”, “bir guruh shaxslar tomonidan”, “oldindan til biriktirib yoki bir guruh shaxslar tomonidan” kabi qilmishni og‘irlashtiruvchi belgilar mavjud.⁵

Albatta, fikrimizcha, bu masalada ayrim muhokamaga sabab bo‘ladigan fikrlar ham mavjud bo‘lib, xususan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Nomusga tegish va jinsiy ehtiyojni g‘ayritabiiy usulda qondirishga doir ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi 2010 yil 29 oktyabrdagi 13-sonli qarori 12-bandidagi “jinoyat ishtirokchilaridan biri qonunga ko‘ra jinoyat subyekti bo‘lman

⁴ M. Rustambayev. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. I tom. Umumiy qism. Jinoyat to‘g‘risida ta’limot: Darslik. – O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2018. 372-b.

⁵ Jinoyat huquqi. (Umumiy qism) Yuridik texnikum o‘quvchilari uchun darslik. Mas’ul muharrir: yu.f.f.d (PhD) X.Ochilov – T.: Adolat nashriyoti, 2020. 106-b.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

hollarda ham ikkinchi ishtirokchining harakatlari guruh tarkibida sodir etilgan jinoyat sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim"⁶, — degan tushuntirishini jinoyat huquqi nazariyasi qoidalariga zid deb hisoblash mumkin, chunki ishtirokchi sifatida voyaga yetmagan shaxs xususida so‘z ketmoqda.

Jinoyatda ishtirokchilik institutiga tushuncha berishda yuqorida bildirilgan qisqacha fikrlardan kelib chiqib, “Ikki yoki undan ortiq jinoyat subyektlarining qasddan jinoyat sodir etishda birgalashib qatnashishi ishtirokchilik deb topiladi” deb ta’rif berilsa, jinoyat huquqi nazariyasi qoidalariga ham muvofiq kelar edi degan fikrdamiz.

Ushbu ta’rifga asoslangan holda ishtirokchilikning uch belgisini, ya’ni birinchidan, jinoyatni sodir etishda kamida ikki nafar jinoyat subyektlarining ishtiroki; ikkinchidan, jinoyatni sodir etishga nisbatan qasdning mavjud bo‘lishi; uchinchidan, ishtirokchilarning jinoyat sodir etish maqsadida birgalashib harakat qilishini ajratib ko‘rsatish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2023 y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. <https://lex.uz/docs/111453>.
3. Jinoyat huquqi. (Umumiy qism) Yuridik texnikum o‘quvchilari uchun darslik. Mas’ul muharrir: yu.f.f.d (PhD) X.Ochilov – T.: Adolat nashriyoti, 2020. 106-b.
4. M.Usmonaliyev. Jinoyat huquqi. Umumiy qism: Darslik – Toshkent: Yangi asr avlod, 2010. 278-b.
5. M. Rustambayev. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. I tom. Umumiy qism. Jinoyat to‘g‘risida ta’limot: Darslik. – O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2018. 372-b.
6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Nomusga tegish va jinsiy ehtiyojni g‘ayritabiyy usulda qondirishga doir ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi 2010 yil 29 oktyabrdagi 13-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/-2414120>.
- 7.F.Ishanxodjayev. Ishtirokchilik institutiga takliflar.
<https://advokatnews.uz/xabar/1841.html>

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Nomusga tegish va jinsiy ehtiyojni g‘ayritabiyy usulda qondirishga doir ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi 2010 yil 29 oktyabrdagi 13-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/-2414120>.